

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
SHARQ FILOLOGIYASI VA FALSAFA FAKULTETI
TARJIMA NAZARIYASI VA AMALIYOTI KAFEDRASI

Qo‘lyozma huquqida

XAYTBOYEVA GULNOZA NARZULLA QIZI

**“XITOIY TILIDAN AFSONALAR TARJIMASINING O‘ZIGA XOS
JIHATLARI”**

5120200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti (sharq tillari bo‘yicha)

yo‘nalishi

Bakalavr darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: N.R. Ismatullayeva

Ilmiy maslahatchi: f.f.n., dots. Q.Sh. Omonov

Toshkent – 2014

MUNDARIJA

KIRISH.....	2
I BOB. AFSONALAR TARJIMASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	
1.1. Afsonalardagi tarixiylik va badiiylik.....	4
1.2. Xitoy mifologiyasi tematikasi va uning tarjima xususiyatlari.....	9
1.3. Afsonalar tarjimasining uslub xususiyatlari	12
II BOB. XITOIY AFSONALARINING TARJIMA TALQINI VA TAFOVUTLAR	
2.1. “ 盘古开天 ” <i>Pangu kai tian</i> – “Panguning olamni yaratishi” afsonasi tarjimasi.....	18
2.2. “ 女娲造人 ” <i>Nüwa zaoren</i> – “Nyuyva odamzotning onasi” afsonasi tarjimalarida obrazlar xilma-xilligi	23
2.3. “ 鲧禹治水 ” <i>Gun Yu zhishui</i> – “Gun va Yuyning suv toshqiniga qarshi kurashi” afsonasining tarjima talqini	28
2.4. “ 后羿射日 ” <i>Hou Yi she ri</i> – “Ovchi Xou Ining quyoshni urib tushirishi” afsonasi tarjimasi.....	33
Xulosa.....	38
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	40

Kirish

Yoshlar hamma zamonlarda ham millat suyanchi, xalqning tayanchi bo‘lib kelgan. O‘zining kelajagini o‘ylagan har qanday davlat avvalo yoshlar tarbiyasiga katta e’tibor beradi. Yoshlar hamisha jamiyatni yangilikka boshlaydi, o‘zlarining kuch-g‘ayrati, bilim va iste’dodi bilan Vatanning qudratini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Bu borada Prezidentimiz I.A. Karimovning quyidagi so‘zlari alohida ahamiyatga molikdir:

“Mening eng katta ishonchim – yosh avloddir. Zamonaviy bilimga ega, odobli, ilmi, ko‘rsang havasing keladigan, barkamol va shijoatli farzandlarimizdir. Men o‘zimning taqdirimni ham, mamlakatimiz va mustaqilligimiz taqdirini ham ana shularning qiyofasida ko‘raman. Kishi ana shunday farzandlari borligidan kuch oladi, onggi tiniqlashadi, rag‘batlanadi, ko‘ksi tog‘day ko‘tariladi”¹.

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillik sharofati bilan respublikamiz dunyoning barcha mamlakatlari bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqa qilish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Respublikamiz fuqarolari turli mamlakatlarda bo‘lib tajriba oshirib qaytmoqdalar. Tilshunoslarning vazifasi ham shu aloqalarni o‘rnatishda ko‘prik bo‘lishdir. Maqsadi esa chet el davlatlarining kelib chiqish tarixini, urf-odatlarini, xalqini o‘rganib, o‘z Ona Yurtiga ma’lumotlarni tanishtirishdir. Bunda tilshunos har tomonlama bilimga ega bo‘lishi, tilni mukammal bilishi va shu bilan birgalikda o‘zga davlatning dunyoqarashini, tarixini bilmog‘i darkor.

Demak, Qadimiy Xitoy tili hamda uning tarixini va adabiyotini boyitgan xalq og‘zaki ijodi bilan tanishish nur ustiga a’lo nur bo‘ladi.

¹ Karimov I.A. Barkamol avlod – O‘zbekiston poydevori. – T.: Sharq, 1998. – B. 43.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Mazkur masala bo'yicha material to'plash jarayonida Xitoy qadimiy tarixi, falsafiy qarashlari, urf-odatlari, madaniyati yuzasidan ma'lumotlarni butun olam o'rganib, dunyo yuzi tanigani ma'lum bo'ldi.

Mavzuning yangiligi. Ishda afsonalarning tarjima xususiyatlari, uslublari ko'rib chiqildi. Qadimgi xitoy afsonalari xitoy tilidan o'zbek tiliga tarjima qilindi.

Mavzuning maqsad va vazifalari. Xitoy afsonalarining tarixini hamda Xitoy afsonalarining tarjimasida ma'lumotlarni ko'rsatib o'tish, tarjima uslublariidan foydalanish yo'llarini o'rganish ishning maqsadini belgilaydi.

Ishning vazifasi:

- afsonalarda qo'llanilgan tarjima uslublari;
- qahramonlarning nomlanishidagi izohi, tarjimalari;
- afsonalardagi qahramonlarning nutqi;
- afsonalarda dialog va monologlarning qo'llanishidagi tarjima muammolarini tahlil qilishdan iborat.

Ishda asosan qiyosiy-chog'ishtirma, analiz va sintez metodlaridan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishinig tuzilishi. Ushbu bitiruv malakaviy ishi kirish, 2 bob, 7 bo'lim, xulosa va foydalanilgan adabiyotalardan tashkil topgan.

I BOB. AFSONALAR TARJIMASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

1.1. Afsonalardagi tarixiylik va badiiylik

Faraz qilaylik, siz yaqin kishingiz bilan biror joyda uchrashishga kelishgansiz. Ammo kutgan odamingiz vaqtida oldingizga kelmadi. Shundan keyin xayolingizni har xil shubhalar egallaydi. Avvalo, tez orada kelib qolar, deysiz. Bir oz o‘tgach, kelishilgan joyda anglashilmovchilik bo‘ldimikan, deb o‘ylaysiz. Vaqt yana o‘tavigach, taxminiy sabablar soni ham ko‘payaveradi. Oxiri fikringizdan ko‘ngilsiz voqealar tizimi o‘ta boshlaydi. Xullas, uchrashuvga yetib kelmagan kimsaning kechga qolish sababini bilmaguninggizgacha tinchimaysiz.

Qadim-qadim zamonlarda yashagan ajdodlarimizga dunyoda ro‘y berayotgan voqea-hodisalar ham ana shunday tinchlik bermagan. Masalan, o‘ta qattiq yer silkinishi sodir bo‘lsa, yer o‘rtasida magma deb atalmish chog‘ borligini, uning harakatga kelishi oqibatida zilzilalar bo‘lishini ilmiy asoslay olmagan omi kishilar: “Yerimizni ho‘kiz shoxida ko‘tarib turgan bo‘lsa kerak, ho‘kiz charchaganida shoxlarini qimirlatib, dam olsa kerak, oqibatda yer qimirlaydi”, – deb faraz qilganlar. Chunki odamlar u paytlarda hatto yerning dumaloq ekanini ham bilishmas edi. Bunday faraziy mulohazalar shunday ko‘p bo‘lganki, o‘tmishdagi odamlar ularga javob topishga ham ulgurmaganlar. Ammo fikr yuritish, taxminiy sabablar topish xususiyatlari hozirgi dunyo kishisida ham ajdodlar dunyo qarashiga yaqin holda saqlanib qolgan, deyish mumkin.

Inson hamisha har bir hodisadan o‘ziga manfaatli jihatlarini topishga urinadi. Xayolan bu manfaatlarni asoslashga sabablar axtaradi. Zamonlar o‘tgan sari turmush tajribasi mazkur hodisalarni turlarga bo‘lish, ulardan foydali va zararlilarni ajratish imkonini beradi. Oqibatda xalq tasavvurida bunday bo‘lsa yaxshi, bunday bo‘lsa yomon degan tushunchalar paydo bo‘ladi.

Masalan, safarga chiqqan odam yoʻlda oq tuyasi bor karvonni uchratsa, uning maqsadi amalga oshgan boʻlishi mumkin. Yoʻlovchi uzoqdan birovni koʻrib qolsa, uning hayotida ijobiy oʻzgarish roʻy bergan boʻladi. Tulkini uchratsa, aksincha boʻlgandir. Tushida bashang kiyinib, egarlangan oq otda chavondoqlik qilgan yigitning ishlari yurishib ketgan deb hisoblanadi. Xonadoniga qaldirgʻoch in qurgan oila tez orada oyoqqa turib mushkullari osonlashgan. Aksincha, biror sabab bilan qaldirgʻoch inini buzgan boʻlsa, xonadon tushkunlikka tushgan. Bu misollarning har biri oʻnlab, yuzlab marta tajribada sinalgan. Bularning izohini har kim har xil sharxlagan. Ayrim hollarda oʻsha kutilgan natija boʻlmagan ham. Lekin xalq ongida yillar oʻtgan sari oʻziga xos hukmlar paydo boʻlib borgan. Bu hukmlar son jihatdan koʻpayib urf-odatlariga, rasm-rusumlarga asos boʻlib xizmat qila boshladi. Misol uchun hozir ham, suvga tupurma, qaldirgʻoch inini buzma, qargʻishga qoladigan ish qilma, birovga taʼmasiz yaxshilik qil, hatto sochiqqa ikki kishi bir paytda qoʻl artmasin, yoki supurgini tikka qoʻyib boʻlmaydi, kabi tushunchalar ana shunday hodisalarning roʻy berishi natijasida asrlar davomida oʻzbeklar ongida shakllanib kelgan.

Xalqimizning tabiati shu darajada nozik boʻlganki, uning tasavvurida raqamlar, ranglar ham yangi-yangi mulohazalar hosil qilgan. Gʻafur Gʻulom Alisher Navoiyning “Farxod va Shirin” dostonini toʻliq sharh bilan nashrga tayyorlashda Xoqon farzandli boʻlgan kuni mamlakatidagi hamma devorlarni qora rangli ipak matolar bilan bezash buyrugʻini berganini aytadi².

Tabiiyki, nima uchun podsho farzand koʻrgan kuni butun yurtini qora harir libosda koʻrishni xohlagan, degan savol tugʻiladi. Gap shundaki, Navoiy yashagan paytda qora rang buyuklik, ulugʻlik ramzi hisoblangan. Oʻzbeklarda Qoravoy, Qorajon, Qoraxon degan ismlarning qoʻyilishi ham bu fikrni dalillaydi.

Yuqorida aytilgan fikrlarning hammasi jamlangan holda mifik dunyoqarash belgilari hisoblanadi. Bu belgilarning shakllanish davri, paydo

² Sobitova T. Xalq ogʻzaki poetik ijodi. – T.: Sharq, 2003. – B. 20.

bo'lish muddati shu qadar qadimiyki, ularni yillar, o'n yillar, yuz yillar bilan emas, balki ming yillar bilan o'lchash mumkindir.

Uzoq qadim zamonlarda odamlarni hayratga soladigan savollar juda ko'p bo'lgan. Xususan, inson va tabiat qanday paydo bo'ldi, tabiatdagi o'zgarishlar nimalar oqibatida ro'y beradi, nima uchun yomg'ir yog'adi, yer qimirlaydi kabi muammolar ajdodlarimizni o'ylashga, o'zlaricha izohlar topishga majbur qilgan. Bu paytlarda ham hali yozuvlar, quyosh, yer, osmon tushunchalari haqidagi ilmiy sharhlar bo'lmagan. Natijada, o'tmish ajdodlarimiz butun dunyoni qanaydir ilohiy kuchlar yaratgan bo'lishi mumkinligini o'ylab topadilar. Ularning tasavvurlarida bu ilohiy kuchlar asosan ikki toifaga bo'lingan edi. Birinchi toifani odamlarga yordam beradigan xudolar, ikkinchi toifani zarar keltiruvchi xudolar deb tasavvur qilganlar. Shunday qilib, dunyoning, insoniyatning, tabiatning, odamlarning paydo bo'lishi haqida eng qadimgi sodda hikoyalarni "miflar" deb atash qabul qilingan.

Yer kurrasining turli hududlarida yashaydigan xalqlar tabiiy sharoitga qarab, turli narsa, hayvon va qushlarni o'zlariga homiy deb bilganlar: hatto, hozir ham bayroqlariga, gerblariga ularning tasvirini ramz sifatida kiritganlar. O'zbekiston Respublikasi bayrog'ida oy va yulduzlar, gerbida humo qushi ana shunday timsol sifatida muhrlanib qolganini eslang.

Miflik dunyoqarash belgilari bolalarga ism qo'yishda ham o'z ta'sirini saqlab qolgan. Albatta, oilada farzand tug'ilgani zahoti unga ism qo'yish odati yaxshi tashvishga aylangan. Oila a'zolari o'z farzandlariga hamisha eng mazmunli, eng go'zal, eng ta'sirchan ism qo'yishni xohlaganlar.

Zamon taraqqiyoti asta-sekin miflarda o'z aksini topgan voqea va hodisalarni ilmiy jihatdan izohlash holatlarini kuchaytirdi. Jumladan, yil davomida fasllarning o'zgarishi, quyosh va oyning tutilishi, yer qimirlashlar, zamon o'tishi bilan ilmiy jihatdan asoslab berildi. Asta-sekinlik bilan insonlarning o'zlari tabiat hodisalariga aralashdilar, ilm-fan rivojlandi. Dehqonchilik, chorvachilik sohasida qator-qator yangiliklar amalga oshirildi. Bu

o'zgarishlar ma'lum darajada miqlarga bo'lgan munosabatlarga ham yangilik kiritdi. Shundan so'ng qadim-qadim zamonlarda ro'y bergan muhim ahamiyatli voqealar miqlar bilan uyg'unlasha boshladi. Natijada, badiiy tafakkurning ifodalanishining ta'sirida sekin-asta xalq og'zaki ijodi namunalari badiiy jihatdan mukammal asar sifatida paydo bo'la boshladi.

Afsonalar dunyodagi deyarli hamma xalqlar og'zaki ijodining eng qadimgi, aziz va ommaviy janrlaridan biridir.

Afsonalar mazmunan turlicha bo'lishi mumkin. Ularni shartli ravishda asotiriy tushunchalar, koinot jismlari, o'rin – joy nomlari, urf – odatlarini sharhlovchi afsonalarga ajratish mumkin.

Asotiriy afsonalarda qadimda yashagan ajdodlarimiz o'zlariga homiy deb hisoblagan shaxslarni ulug'laganlar. Diniy e'tiqod masalalarini yoritganlar.

Shu bilan birga ba'zan xalqimiz yashaydigan ayrim hududlardagi odatlarga izoh beruvchi afsonalarga ham duch kelishimiz mumkin.

Afsonalarning qiziqligi, ularning inson diqqatini jalb qilish sabablari ham, ehtimol, shu xususiyat bilan izohlanadi. Bunday afsonalarning matnida ertaklarga hos bayon usuli, voqea tanlash tamoyillari ko'zga yaqqoltashlanib turadi.

Xalqimiz afsonalarni yaratishda juda ijodkor. Xalqimiz o'z hayotiga tegishli har bir voqea – hodisaga, an' anaga, joy – nomlariga, hatto o'zi yashayotgan Vataniga mehr bilan munosabatda bo'lgan va xalq og'zaki ijodining boshqa janrlari qatori afsonalar vositasida o'z munosabatini bildirgan.

Mifologik obrazlar bilan birga afsonaviy qahramonlar obrazi ham vujudga keladi. Bu qahramonlar kishilarning osoyishtaligi va baxt-saodati uchun kurashib, fidokorlik ko'rsatadilar. Biroq bu kurash dastlabki davrlarda ko'pincha ajdar, dev va jin kabi g'ayritabiiy kuchlarga qarshi qaratiladi. Ajdar, dev, jin va boshqalar ayni zamonda har xil yomonlikning timsoli sifatida gavdalanuvchi ramziy obrazlardir. Eng muhimi shundaki, kishilar jamiyat va tabiatdagi

baxtsizlik hamda turli ofatlarning sababi va mohiyatini tushunolmagan boʻlsalar ham, oʻz kuch-quvvatlariga ishonganlar, “ajdar”, “dev” va “jin”lar ustidan gʻalaba qozonuvchi Gershasp va Elikbek kabi oʻlmas bahodirlar obrazini yaratganlar. Bunday afsonalarning hayotiy ahamiyati ham ana shunda.

Shunday qilib, dunyoning, insoniyatning, tabiatning paydo boʻlishi haqidagi eng qadimgi sodda hikoyalar “miflar” deb atash qabul qilingan. Mahmud Qoshgʻariy oʻzining “ Devoni lugʻotit-turk “ asarida “sav” soʻzining maʼnosini beradi. Olimlarning taʼkidalashicha, bu ota-bobolarimizning aytgan birinchi gaplaridan iboratdir. Maʼlum boʻladiki, “sav” soʻzining ham mif soʻziga yaqinligi bor. Shuningdek, oʻtgan asrlarda yaratilgan ilmiy adabiyotlarda va folklorshunoslikka oid tadqiqotlarda mif soʻzini qoʻllash qabul qilingan. Shuning uchun “sav” (turkiy), “asotir” (arab), soʻzlarining oʻrnida “mif”ni qoʻllash maqsadga muvofiq. Oʻzbek ensiklopediyasida “mif” yunoncha “mifhos”dan olingan boʻlib rivoyat, afsona tushunchalarini anglatishi qayd etiladi³.

Demak, mif deganda, eng qadimgi afsona, rivoyat, doston, hikoyalarni tushunish mumkin. Miflarda barcha narsa jonli obrazlar vositasida harakat qiladi. Miflarda fantastika, badiiy xayolot yetakchilik qiladi, qahramonlarga gʻayriodatiy sifatlar “yuklanadi”.

Shunday qilib, miflar ikki-uch ming yil oldin yaratilgan eng dastlabki sodda hikoyalar namunasiidir.

Demak, afsonalar xalq ogʻzaki ijodining epik turidan biri hisoblanib, ularda tasvirlangan voqealar asosan ijodiy toʻqimalar zaminida yaratiladi. Bu janr namunalariga aytib beruvchi shaxs asar mazmunini saqlagan holda maʼlum oʻzgartirishlar kiritishi mumkin. Afsonalarda mazmun jihatidan xilma-xil voqealar hikoya qilinadi. Bu jihatdan ular asotiriy voqealarni, kosmogonik jismlarni, oʻrin-joy nomlarini, odatlarni izohlovchi turlarga boʻlinadi. Ular

³ SobitovaT. Xalq ogʻzaki poetik ijodi. – T.: Sharq, 2003. – B. 22.

xalqimiz tarixini o'rganishda sharhlashda, joy nomlarini izohlashda muhim ahamiyatga ega.

1.2. Xitoy mifologiyasi tematikasi va uning tarjima xususiyatlari

Qadimgi Xitoy miflari tematik jihatdan asosan insonni qurshab olgan tabiatning turli-tuman sirli hodisalari, ilohlar va yozuv ruhlari haqidagi afsonalarga va go'yoki qadim zamonlarda Xitoyda yashagan va ko'pincha ijtimoiy kuchlarning timsoli sanalgan fantastik mavjudotlarning jasoratlari haqidagi afsonalarga bo'linadi.

Shu narsa diqqatga sazovorki, bizgacha nisbatan to'liq holda yetib kelgan qadimgi Yunoniston va qadimgi Hindiston miflaridan farqli o'laroq, Xitoy mifologiyasi yagona to'plamga birlashtirilmagan ayrim rivoyatlar yoki ularning turli kitoblar bo'ylab sochilib ketgan parchalari tarzida saqlanib qolgan.

Lu Sin Xitoy nasri tarixiga oid asarida buning sabablaridan biri sifatida konfutsiychilarning qadimgi miflar va rivoyatlarni tarixiy solnomalar andazasiga ko'ra qayta ishlash odatini ko'rsatadi. Konfutsiychilar amalga oshirgan o'zgartirishlar natijasida afsonaviy shaxslar tarixiy arboblarga aylangan, mif fantastika, poetik usullarini yo'qotgan. Jumladan, afsonaviy podsho Xuang-di haqidagi qadimgi mifda uning to'rt qiyofasi bo'lganligi qayd etiladi. Ammo, qadimgi manbalarda aytilishicha, aynan Konfutsiyga ko'ra "to'rt qiyofa" ma'nosida emas, balki Xuang-di Xitoyda tinchlik-totuvlikni barqaror etish uchun "to'rt kishini to'rt yoqqa yuborgan" degan ma'noda tushunish lozimligini ta'kidlagan. Konfutsiychilar shu jumladan Sun sulolasi davrigacha (X-XII asrlar) miflarni tarixiy syujetlarga aylantirishda davom etganlari ma'lum.⁴

Ammo boshqa tadqiqotchilarning fikricha, xitoy miflarining tarqoqligi sababi konfutsiychilik degan tahmin uncha ishonarli emas. Bu yerda bitta savol tug'uladi: nima uchun konfutsiychilik tanqid ostiga olingan va badiiy ijod taqdirida hal qiluvchi rol o'ynashi mumkin bo'lmagan. Sin sulolasi davri

⁴ Chine's mifhos. – L.: Britian university, 1998. – P. 7.

(miloddan avvalgi III asrda) olimlari miflar va afsonalarni ularning to'liq va asl holatda tiklashga harakat qilmaganlar? Bu yerda konfutsiychilikning mifologiyaga salbiy munosabatigina emas, balki asl tabiati hanuzgacha aniq bo'lmay qolayotgan tarixiy holatlarda bo'lsa kerak.

Maxluqlar insoniy qiyofalar kasb etishda aynan miflarning ijtimoiy-tarixiy vazifalari, axloqiy manaviy qarashlariga muvofiq qadimgi solnomalar tarzida qayta ishlagan konfutsiychilarmuayyan ro'l o'ynagan bo'lsa kerak.

Xitoy mifologiyasida olamning va yerda hayotning kelib chiqishi mavzusi ko'zga ko'rinadigan o'rinni egallaydi.

Bu miflar mazmunining bayoniga va tahliliga o'tishdan oldin shuni qayd etish lozimki, dunyo yaralishining mifologik versiyalari ularning soddaligi va betakrorligi tufayli dunyo paydo bo'lishining ko'p sonli qadimgi adabiy yodgorliklarda qayd etilgan naturfalsafiy sharhi paydo bo'lganidan keyin ham xalq orasida saqlanib qolgan.

Ma'lumki, yodgorliklarning eng qadimgilari mifologik ong inqirozga uchragan davrda vujudga kelgani ularni dastlabki urinishda tiklashni oshiradi. Mifologik ong ularda sinfiy jamiyat ehtiyojlari va qarashlariga moslashtirilgan ko'rinishda namoyon bo'ladi.

Murosasiz mafkuraviy kurash sharoitida miflar qayd etilgan miloddan avvalgi birinchi ming yillikda ayni bir syujetlar turlicha, ba'zan qarama-qarshi mazmunda yoritiladi. Bunga Xitoyning "Rivoyatlar kitobi" hamda "Tog'lar va dengizlar kitobi" misol bo'lishi mumkin. Tilga olingan birinchi kitob qadimgi xitoy rivoyatlarining barchasini bir to'plamda jamlashga urinish mahsuli hisoblanadi. Ikkinchi kitobda esa mahalliy an'analar qayd etiladi. Bunda "Rivoyatlar kitobi" versiyalarida uning ayrim qismlari nisbatan qadimiy ekanligiga qaramay, mif rivojlanishining so'nggi bosqichi yoki uning konfutsiychilik maktabi ishlovidan o'tgan namunalari aks etadi. "Tog'lar va

dengizlar kitobi” esa, aksariyat hollarda mif rivojlanishining dastlabki bosqichlarini aks ettiruvchi folklorga yaqin versiyalari saqlangan⁵.

Fetishizm va totemizm mifning ilk tarixini belgilaydi. Bu davrda uning elementlari, motivlari mavzularining bir qismi vujudga kelgan. Totemning o‘z qavmdoshlarini himoya qilish, ularning sa’y-harakatlariga ko‘maklashish sehrli qobiliyati haqidagi tasavvur totemga qaratilgan duolarda, “Qo‘shiqar kitobida” o‘z aksini topgan.

Olamning yaralishi va inson qavmining vujudga kelishi haqida boshqa qadimgi hikoyalar ham mavjud. Xitoyda dunyoning yaralishi va yerda hayotning vujudga kelishi haqida turli mif va afsonalarning paydo bo‘lish sabablari hanuzgacha to‘la aniqlanmagan. Xitoylik ayrim tadqiqotchilar buni bizgacha yetib kelgan miflar bitta qabilaning emas, qadimda Xitoyning turli joylarida yashagan ko‘p sonli alohida-alohida qabilalarning ijod mahsuli ekanligi bilan tushuntiradi. O‘zaro muloqot va ta’sir jarayonida asta-sekin mahalliy rivoyatlarning qorishuvi yuz bergan. Ularning ba’zi qismi o‘zgargan ko‘rinishda bizgacha yetib kelgan. Turli qabilalar madaniyati negizida yagona xitoy madaniyati vujudga kelgan hozirgi kunda bizgacha yetib kelgan miflarning kelib chiqishini, ularning u yoki bu qabilaga mansubligini aniqlash juda ham mushkul ish, lekin manbalarning bir emasligi, yaratilish tabiatning turliligi deyarli shak-shubhasizdir.

Demak, xitoy miflarini o‘rganishda Qadimgi Xitoyning tili hamda uning tarixini va adabiyotini boyitgan xalq og‘zaki ijodi bilan tanishish nur ustiga a’lo nur bo‘ladi.

⁵ Chine’s mifhos. – L.: Britian university, 1998. – P. 7.

1.3. Afsonalar tarjimasining uslub xususiyatlari

Har bir tilni o‘rganishda, birinchi navbatda, o‘z ona tilini bilish lozim. Ana shu nuqtai nazardan biz avvalambor, o‘zbek tili misollari orqali tarjimadagi qo‘llanilgan uslublarni ko‘rib chiqamiz.

Insonning ma‘naviy kamolotga⁸ yetishida, madaniy va ma‘rifiy yuksalishida ona tilining o‘rni nihoyatda muhim hisoblanadi.

Til milliy madaniyat va ma‘naviyatning ko‘zguvidir. Hadisi sharifda keltirilishicha “Kishining zebu-ziynati, go‘zalligi uning tilidadir”. Til millatning tamaltoshidir, agar u boy berilsa, millatlar ham yo‘q bo‘ladi. Chunki ona tilida millatning ruhiyati yotadi.

Har bir insonning bosh maqsadi yer yuzidagi tinchligini saqlash, Vatan ravnaqi uchun Yurt tinchligi va ona tilining rivoji uchun xizmat qilish bo‘lishi kerak.

Til o‘tgan avlodlar tajribasi, bilimlari natijalarini kelgusi avlodlarga yetkazuvchi ko‘prik hamdir. Kishilar hayot tajribalari va ilmiy yutuqlarini yozib qoldiradilar va ular avloddan-avlodga o‘tib, boyib, rivojlanib boradi. Bu tilning ma‘rifiy ahamiyatidir⁶.

Insoniyat tarixida dastlab og‘zaki nutq yagona aloqa quroli bo‘lib xizmat qilgan. Yozuv paydo bo‘lgach, odamlar og‘zaki va yozma nutqdan foydalanganlar⁷.

Afsonalarni tarjima qilishda asosan nutq uslublarining badiiy uslubi qo‘llaniladi. Lekin badiiy uslubda nutq uslubining boshqa turlari ham namoyon bo‘ladi ya‘ni ilmiy uslub, publitsistik uslub, so‘zlashuv uslubi, rasmiy-idoraviy uslublarining elementlarini payqashimiz mumkin.

⁶ Anorbekova A. Hozirgi zamon adabiy tili. –T.: O‘qituvchi, 2007. – B. 7.

⁷ Anorbekova A. Hozirgi zamon adabiy tili. –T.: O‘qituvchi, 2007. – B. 14.

Shuning uchun ham badiiy uslubni aralash uslub ham deb atashadi. Badiiy uslub tilga asoslanadigan, adibning xarakteri, dunyoqarashi, bilimi va hayotiy tajribasini o‘zida aks ettiradigan, jilolangan uslubdir.

Badiiy uslub o‘quvchida estetik zavq uyg‘otadi. Demak, badiiy uslub orqali ro‘yobga chiqqan nutqlarning voqea-hodisa haqida axborot berish (kommunikativ vazifani bajarish)dan tashqari, kitobxonga ta‘sir qilish (ekspressiv) vazifani ham bajaradi.

Badiiy uslub uchun obrazlilik, tasviriy ifoda vositalariga boylik xosdir. Badiiy uslubdan boshqa barcha uslublar ijtimoiy hayotning ma‘lum sohasi doirasida chegaralangandir. Badiiy uslub, ulardan farqli ravishda, inson amaliy hayotining barcha tomonlarini o‘rab turadi.

Badiiy uslub inson hayotini barcha tomonlarini qamrab oladi. Bu uslub barchaga barobarligi, o‘quvchiga, tinglovchiga emotsional ta‘sir etishi bilan boshqa uslublardan ajralib turadi.

Bu uslubda muallif tilning barcha leksik, grammatik vositalaridan foydalanishi, turli ifodaviy vositalarni qo‘llashi mumkin. Boshqa uslublarning materiallaridan badiiy uslubda bemalol foydalanish mumkin. Shunga ko‘ra, badiiy nutq uslubi keng imkoniyatga ega. San‘at va adabiyot asarlari, xalq og‘zaki ijodlari shu uslubda yaratiladi.

Badiiy uslub o‘zbek tili vazifaviy uslublari orasida o‘ziga xos mavqega ega bo‘lib, ayni paytda o‘zining alohida me‘yorlariga ham ega.

Badiiy tarjimaning boshqa tarjima turlaridan farqi shundaki, uning bosh vazifalaridan biri badiiy adabiyot namunalariidagi kommunikativ ta‘sirning yorqin ko‘rinishlaridan bo‘lgan badiiy-estetik zavqni uzatish sanaladi.

Til materialini qamrab olish imkoniyatining kengligi, umumxalq tilida mavjud bo‘lgan barcha lingvistik birliklarning, shu bilan birga, boshqa vazifaviy uslublarga xos bo‘lgan elementlarning ham ishlatilaverishi va ularning muhim bir vazifaga – badiiy estetik vazifani bajarishga xizmat qilishi badiiy uslubning

asosiy hususiyati hisoblanadi. Tabiiyki, bunday imkoniyatlar boshqa vazifaviy uslublarda chegaralangan⁸.

Tarjima qilish vositalarini qoidalashda ana shu keng qamrovlilik bo'lishi bilan birga, bu uslub doirasida ularni qoidalashning ma'lum me'yorlari ham amal qiladiki, fonetik, grammatik va frazeologik xususiyatlar tarzida ko'zga tashlanadigan ana shu me'yorlar uni boshqa vazifaviy uslublardan chegaralash imkonini beradi.

O'zbek tili so'z turkumlarining grammatik shakllari turli adabiy, tarixiy hamda dialektal variantlarga ega bo'lib, ular hozirgi adabiy til me'yorlari nuqtai nazaridan bir tomondan, qo'llanish chastotasiga ko'ra faol yoki aksincha bo'lsa, ikkinchi tomondan, ularda vazifaviy-uslubiy chegaralanish sezilib turadi.

Badiiy uslubda bu grammatik shakllarning barcha ko'rinishlari – lahja va tarixiy variantlari ham asarning mavzu talabi bilan qo'llanaveradi.

Tarjima jarayonida san'atkor son-sanoqsiz amaliy mushkulotlarga duch keladiki, bu hol, tarjimaning ijodiy faoliyat ekanligi tufayli, tarjimonda har bir muammoli holat yechimiga ijodiy yondashishni talab qiladi. Asl nusxaga ijodiy munosabatda bo'lishgina tarjimaning muallif maqsadiga muvofiq tarzda amalga oshirilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

“Tarjimon asl nusxani bo'yoqlarga bo'yamasligi, unga qo'shimchalar kiritmasligi yoki tarjima qilinishi qiyin bo'lgan joylarini qisqartirmasligi, qahramonga sun'iy ravishda milliy ust-bosh kiygizmasligi kerak”⁹. Tarjimada haqiqatdan ham milliylikni unutish kerak emas, lekin o'zidan ham qo'shimchalar qo'shilishi bu aslyatdagi matning o'zgarib ketishiga olib keladi. Aslyat matnda har bir xalqning milliy kiyimlari, urf-odatlari, qadriyatlarini, milliy o'ziga xos so'zlari, personajlarning ismlari keltirilgan bo'ladi. Bu milliylikni o'zgartirib, unga qo'shimchalar qo'shish tarjima qilinayotgan asarga nisbatdan hurmatsizlikni namoyon qiladi.

⁸ Anorbekova A. Hozirgi zamon adabiy tili. –T.: O'qituvchi, 2007. – B.18.

⁹ Sharapov J. She'riy tarjimaning ba'zi masalalari. – T.: Fan, 1959. – B. 27.

Afsonalarda barcha narsa jonli obrazlar vositasida harakat qiladi. Afsonalar ertaklarga yaqin turadi. Ularning har ikkalasida ham fantastika, badiiy xayolot yetakchilik qiladi, qahramonlarga g'ayriodatiy sifatlar "yuklanadi". Shuning uchun ham afsonalarni tarjima qilishda badiiy uslub xizmat qiladi.

Qadimiy xitoy mifologiyasining birinchi tadqiqoti Rossiyada 1892-yilda paydo bo'lgan. Bu allaqachon bibliografik noyob asar bo'lib ulgurgan, ammo nazardan chetda qolgan, Peterburg universitetidan professori S.M. Giorgiyevskiyning "Мифические воззрения и мифы Китайцев" ("Mifik dunyoqarash va Xitoyliklarning miflari") kitobi edi. Bu kitobda Giorgievskiy Xitoy miflarining tasnifini bergan¹⁰.

1932-yili Venera nomli yangi ish paydo bo'ldi. Bu safar katta hajmli "Xitoy mifologiyasi lug'ati" taqdim etildi. Ratsional konfutsiycha dunyoqarash ta'sirida qadimdagi real qatnashchilar deb oldindan talqin qilingan mif personajlarining tarixiylashtirilishi qadimiy xitoy mifologiyasining farq qiluvchi xususiyatlaridan biridir¹¹.

Asosiy personajlar qadimgi miflarga va imperatorlarga, ikkinchi darajali personajlar esa amaldorlarga, ulug' martabali zodagonlarga va boshqalarga aylanib qolardi. Totem gavdalanishlar katta rol o'ynar edi.

Miflardagi asosiy personajlar bu: bug'u, maymun, timsoh, quyon, eshak, ot, Gang daryosi, suv hukmdorlari va har xil o'simliklar bo'lgan.

Ko'pgina matallar, frazeologizmlarni xitoy tilidan tarjima qilishda qiyinchilik yuzaga keladi. Chunki ular, asosan tarixiy, afsonaviy va badiiy personajlarni qo'llashga asoslangan.

Xitoy tili tarjimonga konkret nomlarni ishlatmasdan rus tilidagi analoglarni (tarjima qilinayotgan tildagi o'xshash personajlarni) tezda topish qiyinchilik tug'diradi.

¹⁰ Георгиевский С.М. Мифические воззрения и мифы Китая. – М., 1892. – С. 3.

¹¹ Вернер Л.Л. Мифы и легенды Китая. – М., 1932. – С. 2.

Xitoylik mualliflarning adabiyotshunoslikka oid hozirgi asarlarida miqlar 神话 *shenhua*, afsonalar 传说 *chuanshuo* va umrboqiy jonzotlar haqidagi rivoyatlar 仙话 *xianhua* farqlanadi, lekin qadimgi Xitoy folklorining bu janrlari o'rtasida aniq chegara o'tkazish ba'zan juda qiyin. Boz ustiga turli adabiy manbalarda tarjimalar turlicha ifodalangan.

Sin sulolasi davridagi (milloddan avvalgi III asr) olimlarning tarjimalarida afsonalarni va miqlarni ularning asl va to'liq holatida tarjima qilmaganlar, ularning ma'nosinigina chiqarib berganlar.

Yana shuni hisobga olish lozimki, xitoy miqlari va afsonalari asrlar mobaynida og'izdan-og'izga o'tish jarayonida sezilarli darajada o'zgargan.

Bunday miqlarni tarjima qilishda oddiygina, soddagina so'zlashuv uslubi orqali tarjima qilinadi. Bunday tarjima badiiy uslubda tarjimani kengroq ifodalaydi va bu tarjimada so'zlashuv uslubining unsurlari xizmat qiladi.

Adabiy til me'yorlari doimo amal qilavermaydigan erkin muloqot shakli oddiy so'zlashuv uslubi sanaladi.

Ma'lum adabiy til me'yorlariga bo'ysungan, tartibga solingan so'zlashuv uslubiga adabiy so'zlashuv uslubi deyiladi.

So'zlashuv uslubining har ikki turi ko'pincha dialog shaklida ro'yobga chiqadi. Ikki shaxsning o'zaro so'zlashuvi dialogik nutq sanaladi. So'zlashuv uslubida so'zlar erkin qo'llaniladi¹².

Masalan,

Qadimgi Xitoyning eng mashhur afsonasi "Pangu olamni yaratdi" "历代神化传奇经典" kitobida keltirilgan versiyasida ishtirok etgan dialog:

- 你叫什么名子呢？
- 我们俩都叫盘古，你是盘古哥哥，我是盘古妹妹。

¹² Anorbekova A. Hozirgi zamon adabiy tili. -T.: O'qituvchi, 2007. - B. 32.

Transkripsiya:

- *Ni jiao shenme ming zi ne?*
- *Wo men lia jiao Pangu, ni shi Pangu gege, wo shi Pangu meimei¹³.*

Tarjimasi:

- *Sening isming nima?*
- *Biz ikkalamizning ismimiz Pangu, sen Pangu akasan, men Pangu singilman.*

Bu afsonada ikkita qahramonning suhbatini kuzatishimiz mumkin. Dialog ishlatilishida aka va singilning o'rtasidagi munosabatarini, singilning akasiga bo'lgan mehrini, akaning singliga erkalatib savol berishini, hamda haqiqiy Xitoyning milliy an'analari, bir-biriga bo'lgan hurmatu-izzatini dialoglar orqali ifodalanilishini ko'rishimiz mumkin. Bu dialogni tarjima qilishda aslyatning shaklini to'liq e'tibordan soqit qilgan holda, mazmunini kitobxonga tushunarli holda sodda va qisqa qilib hikoya qilish kerak.

Haqiqatdan ham afsonalarni tarjima qilish bilan birgalikda, o'zga davlatning madaniyatini, hayotini, o'zgalarga hamda bir-birlariga bo'lgan munosabatlarini bilish mumkin.

¹³吴性坚。历代神化传奇经典。-北京:西苑出版社, 2006。-P. 23.

II BOB. XITOIY AFSONALARINING TARJIMA TALQINI VA TAFOVUTLAR

2.1. “盘古开天” *Pangu kai tian* – “Panguning olamni yaratishi” afsonasi tarjimasi

Naturfalsafiy tarjima talqinidan farqli o‘laroq, Xitoyda keng tarqalgan va bizgacha faqat milodiy III asrga mansub bo‘lgan tarjima manbalari orqali yetib kelgan mifologik farazlardan biriga ko‘ra, olam kosmik in va yan kuchlari tasiri natijasida emas, balki birinchi inson, Xitoy kosmogoniyasining buyuk qahramonlaridan biri Pangu¹⁴ irodasi va qo‘llari bilan yaratilgan.

Pangu haqidagi afsonalarda uni ilohiy qahramon sifatida ko‘kka ko‘tarishgan. Unga “olamni yaratuvchi” deb maqom berishgan. U butun olamni yaratishda hayotining ko‘p qismini sarflagan. Yaratib bo‘lgach esa vafot etgan. U bu mashaqqatli vazifasini turli asboblar va o‘z kuch-quvvati bilan amalga oshirgan.

Turli davrlarga mansub tarjima manbalarida Panguning turli hil tasvirlariga duch kelishingiz mumkin. Bu ayniqsa daocha tarjima talqinlariga tegishli.

很久很久以前, 有个叫盘古的人. 他的个子很矮. 盘古手有东西: 第一个手有斧子, 第二手有刀子.

盘古用这些开天.

Hen jiu hen jiu yi qian, you ge jiao Pangu de ren. Ta de ge zi hen ai. Pangu shou you dong xi: di yi ge shou you fu zi, die r ge shou you dao zi. Pangu yong zhe xie kai tian.

Ushbu parcha tarjimasida Pangu bo‘yi g‘ayritabiiy darajada past, bir qo‘lida bolg‘a, ikkinchisida pichoq ushlagan holda ikki shoxli siymo sifatida

¹⁴Pangu ism bo‘lib ikki iyeroglifdan tashkil topgan: 1-iyeroglif: “Pan” – “qattiq qobiq”, “tuxum po‘chog‘i” degan ma‘noni anglatgan. 2-iyeroglif: “Gu” – “qadimgi”, “ko‘hna” degan ma‘noni anglatadi.

gavdalanadi. Ko‘rsatilgan asboblar olamni yaratuvchi faoliyatining xususiyatiga ishora qiladi

Ba‘zan pichoq va bolg‘a o‘rniga Pangu bir qo‘lida “quyosh”ni, ikkinchi qo‘lida esa “oy”ni ushlagan ko‘rinishda namoyon bo‘lgan.

Keyingi davr tarjimalarida esa Pangu ajdar¹⁵, qaqnus¹⁶, yakkashox¹⁷ va toshbaqa kabi afsonaviy jonzotlar davrasida tasvirlangan.

Afsonaning tarjimasiga ko‘ra, olamni yaratish va yerda hayotni yo‘lga qo‘yishga Pangu 18 ming yilini sarflagan.

Taxminan milloddan avvalgi XVII asrga mansub bo‘lgan boshqa bir tarjimaga ko‘ra badiiy uslub qo‘llanilgan.

盘古死的时候, 浑身发生着巨大的变化:

口中呼的团团气变成了天上的风和云; 他发出的声音, 隆隆雷声; 他的左眼睛变成了光芒万丈的太阳; 右眼睛变成了皎洁明亮的月亮; 手足和身躯和大地的四极和方五的名山; 他的血液变成了江河; 他的筋脉他的大道; 他的肌肉变成了田地; 他的头发和胡须变成了星星; 他的皮肤和汗毛变成了花草树木; 他的牙齿, 骨头, 骨则变成了蕴藏在大地下的光闪的金属, 坚硬的头石, 美丽的珍珠湿润的玉石; 他的身上汗水也变成了无尽的雨露和甘霖.

Transkripsiyasi:

Pangu si de shi hou, hun shen fa sheng zhe ju da de bian hua; kou zhong hu de yi tuan tuan qi; bian cheng le tian shang de feng he yun; ta fa chu de sheng yin, bian cheng le long long lei sheng; ta de zou yin jing bian cheng le, hu ming liang de yue liang; ta de shou zu he shen qu bian cheng le da di de si ji he wu fang de ming shan; ta de xue ye bian cheng le jian he; ta de jin mai bian cheng le da dao, ta de ji rou bian cheng le tian shang de xing xing. Ta de pi fu

¹⁵ Ajdar (龙 long) – daryolar va dengizlar xudosi, kuch-qudrat, imperator hokimiyati timsoli.

¹⁶ Qaqnus (凤 feng) – baxt-saodat va farovonlik timsoli sanalgan qush.

¹⁷ Yakkashox (麟 lin) – paydo bo‘lishi yaxshilikdan dalolat beruvchi afsonaviy jonzot.

he han mao bian cheng le hua cao shu mu; ta de ya chi, gu tou, gu ge guang de ze bian cheng le yun cang zai da de xia de shang guang de jin shu, jian ying de shi tou, mei li de zhen zhu han shui ye bian cheng le wu jin de yu lu he gan.

Tarjimasi:

Pangu vafot etganidan so'ng olam o'zgaribdi.

